



E-ISSN 2181-1466  
9 772181146004



ISSN 2181-6875  
9 772181687004



@buxdu\_uz



@buxdu1



@buxdu1



[www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)

**9/2023**

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University



## BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



**9/2023**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI  
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY  
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**

**2023, № 9, oktabr**

Jurnal 2003-yildan boshlab filologiya fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab fizika-matematika fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab siyosiy fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinnbosari:** Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.**, filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.**, kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.**, texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.**, fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich**, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich**, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Djurayev Davron Raxmonovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdyev Durdimurod Qalandarovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich**, kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich**, tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich**, tarix fanlari doktori, professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoira Nematovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bekova Nazora Jo'rayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Amonova Zilola Qodirovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hamroyeva Shahlo Mirjonovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Nigmatova Lola Xamidovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Boboyev Feruz Sayfullayevich**, tarix fanlari doktori

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**, siyosiy fanlar doktori, professor

**Rasulov Zubaydullo Izomovich**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Qurbanova Gulnoz Negmatovna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Zaripov Gulmurot Toxirovich**, texnika fanlari nomzodi, dotsent

<b>MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS</b>		
<b>ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ</b>		
<b>Fouzia A., Rasulov T.H.</b>	Modified proximal point algorithm for minimization and fixed-point problem in geodesic space with positive curvature	4
<b>Norkobilov A.T., Bakhtiyorov A.N., Elmanov J.B.</b>	Modeling of membrane processes for the separation of azeotropic mixtures	9
<b>Doliyev Sh.Q.</b>	Juft regressiya va korrelyasiya tahlillari orqali noaniq sharoitlar uchun ekonometrik model tuzish	14
<b>Dusanova G.M., Tadjiyeva M.K., Egamberdiyeva M.X., Qobilov F.Sh., Bozorov Sh.I.</b>	Maktabgacha ta'lim muassasalarida 3-7 yoshli bolalar uchun ratsional ovqatlanish tamoyillarini ishlab chiqish	20
<b>Faxrodov S.U.</b>	Texnologik jarayonlarni optimallashtirishda texnik vositalarni tadqiq qilish	28
<b>Jumayev J., Fatilloyeva M.N.</b>	Manbasiz turli materialli bir o'lchovli sohalarda issiqlik tarqalishini sonli o'rGANISH	35
<b>Rahmonov E.S.</b>	Bir jinsli sohalarda Karleman formulasi	43
<b>Raxmatov I.I., Jo'rayev H.O., Mirzayev M.S., Halimov N.N.</b>	O'zbekiston sharoitida quyosh fotoelektrik stansiyalarini ishlashning ilmiy-texnik imkoniyatlari	48
<b>Shaxriddinov F.F., Akbarov M.M., Egamberdiyeva M.X., Ergashov A.M.</b>	7-12 yoshdagagi bolalarni ratsional ovqatlanishining yangi tamoyillarini ishlab chiqish	58
<b>Shaxriddinov F.F., Berdimuradov X.T., Ibragimov A.K., Irgasheva M.E., Shodiyeva E.B.</b>	Sportchilar uchun funksional ovqatlanish mahsulotlarini tahlil qilish	66
<b>Barakayev N.R., Uzoqov Y.A., Ergashev A.M., Sayfullayev N.I.</b>	O'zbekiston sharoitida zamonaviy un ishlab chiqarish texnologik liniyasini narariy jihatdan asoslash	74
<b>Шарипов М.З., Хайитов Д.Э., Эргашева Н. М. Олимпур Ф.И., Файзиева З.Х., Зокирова З.М.,</b>	Доменная структура бората железа	79
<b>Bozorov I.N., Rasulov T.H., Tosheva N.A.</b>	Panjaradagi chekli o'lchamli qo'zg'alishga ega bir zarrachali Hamiltonian uchun Birman-Shvinger prinsipi	84
<b>Tosheva N.A.</b>	Uchinchi tartibli operatorli matritsalar oilasi uchun Birman-Shvinger prinsipi va uning tadbiqlari	91
<b>Akramova D.I., Qurbanova D.N.</b>	On classification of singularities related to oscillatory integrals	99

Jumayeva Ch.I.	Ba'zi to'rt o'lchamli Li algebralaring lokal ichki differensiallashlari	106
Зарипов Г.Т.	Технология производства напитков на основе составляющих природного характера	110
Меражова Ш.Б	Эквивалентность обратной задачи поставленной уравнению смешанного типа интегральному уравнению Фредгольма 1-рода	114
Bazarova S.J.	Elementary thermodynamics	120

### **TILSHUNOSLIK \*\*\* LINGUISTICS \*\*\* ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Navruzova M.G.	Tibbiy birliklarning folklor asarlaridagi genderologik tavsifi	127
Raxmanov B.A.	Surxondaryo etnodialektal xarakterdagi maqol va matallarning turlari hamda lingvomadaniy xususiyatlari	131
Nazarova S.A.	Turkiy tillarda shaxs tavsifining sintaktik ifodasi xususida	136
Akramov I.I.	An aphorism as an entire passage: mechanisms of structural-semantic organization	142
Nabiyeva Sh.I.	Formation and orthological genesis of the English literary language norms	148
Saidova M.U.	Ingliz adabiyotshunoslik lug'atlari xususida mulohazalar	152
Umurova Kh. Kh.	Linguoculturological analysis of axiological concepts of wedding rite in different cultures	158
Жўраева Ю.Ф	Ўзбек хотин-қизлар исмларида ой лексемасининг ўрни ва қўлланиши	162
Vaxidova F.S	Ziyorat turizmi terminlarining struktural qoliplari	167
Kilichev B.E.	Regionim – Buxoro toponimlarining bir guruhi	172
Мейлиева М.О.	Использование современных подходов в преподавании русского языка в условиях билингвизма: актуальные проблемы и рекомендации	176
Каримова Г.Х.	Лингвокультурологические особенности экклезионимов джизакской области	180
Қаххорова Г.Ш.	Юкламаларнинг ёрдамчи сўзлар билан вазифадошлиги	186

### **ADABIYOTSHUNOSLIK \*\*\* LITERARY CRITICISM \*\*\* ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

Latipova S.T.	Tarixiy asarlarda Buxoroning hukmdor ayoli tavsifi	197
Meliyev X.N.	Gulbadan Beginning "Humoyunnoma" asari va tarjimalarida keltirilgan ruboyning adabiy tahlili	203
Тўҳсанов Қ.Р.	Румий "Маснавий маънавий" манзумасининг аслият ва ўзбекча таржимасининг рақамларда берилishi	207
Болгаева Г.ИІ.	O'zbek adabiyotida ilk Muxammas	215
Abdullayeva X.N.	Ingliz hamda o'zbek ertaklarida g'aroyib safar motivi	219
Habibova M.N.	Description of the Orient in Lawrence's "Seven pillars of wisdom"	223
Karamova Sh.L.	Aruz – metaforik tafakkurning keng maydoni sifatida	228
Karimova Sh.K.	Zamonaviy ingliz va o'zbek she'riyatida tovush takrorlarining o'ziga xos jihatlari	232
Muxtorova U.T.	Mumtoz adabiyot namunalarida ilohiy motivlar va rivoyatlarning qo'llanilish tamoyillari	240
Urazaliyeva M.G'.	Maya Anjelu asarlarining adabiy tanqidchilar tomonidan tahlil qilinishi	245
Xolova M.B.	Badiiy matnda xushmuomalalik strategiyalarining vogelanishi	251
Муртазаева Ф.Р.	Внутренний мир персонажей в «женской прозе» английских и американских писательниц	258

TURKIY TILLARDA SHAXS TAVSIFINING SINTAKTIK IFODASI XUSUSIDA

Nazarova Saida Axmedjanovna,

Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi va  
jurnalistika kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari nomzodi  
saidanazarova77@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek tilidagi shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining semantik guruhlari, lisoniy qurilish qolipi, oraliq shakllari ajratilgan, til sathida shaxs tavsifini anglatuvchi so'z birikmalari tizimini hosil qilishi asoslangan. Turkiy tillarda shaxs tavsifining sintaktik ifodalanishi masalasi o'zbek, ozarbayjon va qumiq tillaridagi shaxsni tavsiflashga xizmat qiluvchi so'z birikmalari misolida qiyosiy o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxs, shaxs tavsifi, so'z birikmasi, ismli birikmalar, lisoniy sintaktik qolip, antroponom.

О СИНТАКСИЧЕСКОМ ВЫРАЖЕНИИ ОПИСАНИЯ ЛИЧНОСТИ  
В ТЮРКСКИХ ЯЗЫКАХ

**Аннотация.** В статье обосновано образования системы словосочетаний, описывающих личность на уровне языка, выделены семантические группы, рассмотрены языковая синтаксическая модель и промежуточные формы их в узбекском языке. Изучен в сравнительном аспекте вопрос синтаксического выражения описания личности в тюркских языках на примере словосочетания служащие для описания личности в узбекском, азербайджанском и кумыкском языках.

**Ключевые слова:** личность, описание личности, словосочетание, именные словосочетания, языковая синтаксическая модель, антропоним.

THE SYNTACTIC EXPRESSION OF PERSONALITY DESCRIPTION  
IN THE TURKIC LANGUAGES

**Abstract.** The article substantiates the formation of a system of phrases describing a person at the language level, identifies semantic groups, a linguistic syntactic model and their intermediate forms in the Uzbek language. The question of the syntactic expression of the description of personality in the Turkic languages has been studied comparatively by the example of the phrase serving to describe personality in the Uzbek, Azerbaijani and Kumyk languages.

**Key words:** personality, personality description, word combination, nominal phrases, language syntactic model, anthroponym.

**Kirish.** Tilda shaxsni atash yoki tavsiflash leksik-semantik sath birliklarining vazifasi bilan cheklanmaydi. Til tizimi shunday qurilganki, ayni bir vazifani bajarishda lisoniy sathlar bir-birini to'ldiradi, qo'llab-quvvatlaydi, muhtasham imorat ustunlaridek uning butunligini ta'minlab turadi. Agar har bir tilda shaxsni atashga xizmat qiluvchi leksik birliklar mavjud hisoblansa, demak, shaxs tushunchasini ma'lum jihatdan muayyanlashtiruvchi sintaktik birliklar borligiga shubha qilib bo'lmaydi. Tilda shunday imkoniyat mavjudligini S.E.Ragimxanova, N.V.Yashchenko, G.I.Babayeva, M.T.Ramazanov, G.X.Zinnatulina, M.B.Guseynovaning tadqiqotlari [1; 2; 3; 4; 5; 6] dalillaydi. Ularda ozarbayjon, slavyan, roman-german, tatar, qumiq tillarida shaxsning u yoki bu xususiyatini aniqlashtiruvchi so'z birikmalari atributiv, ismli, substantiv, genetiv birikmalar paradigmasida ko'zdan kechiriladi. Bu sintaktik birliklar ba'zan tavsifiy, ba'zi hollarda semantik, struktur, qiyosiy-tipologik jihatlardan tahlil qilingan. Ta'kidlash lozimki, ismli, substantiv, atributiv birikmalarda aks etishi qayd etilsa ham, "shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari" deb ajratilmagan va maxsus tadqiq etilmagan.

**Asosiy qism.** O'zbek tilida shaxs tavsifi leksik, morfologik, sintaktik birliklar orqali ifodalanadi. Shaxs tavsifi "shaxs" semali leksik birliklarda ifodalanishi, ot turkumi tizimida shaxs otlari/nomlari sifatida ajratilishi va "shaxs tavsifi" mavzuviy to'dasini tashkil etishi, shuningdek, mazkur to'da tarkibida o'ndan ortiq lug'aviy-ma'noviy guruhga birlashishi ma'lum. Tilshunoslikda "shaxs" va "shaxs tavsifi" ma'nolarining til birliklarida aks etishi yirik muammo bo'lgani bois bu muammoni alohida tadqiq qilish lozim. Shunisi muhimki, tilda shaxs tavsifi leksik-semantik ifodalanish imkoniyati bilan cheklanmaydi.

## LINGUISTICS

Sababi, til shaxsni tafsiflash vazifasini so'z birikmalari yordamida ham amalga oshiradi. Chunonchi, o'zbek tilida so'zlashuvchilar nutqida shaxsni ma'lum xususiyatlariga ko'ra tafsiflaydigan so'z birikmalari mavjud: *o'qituvchi ayol, sotuvchi erkak, ayol haydovchi, erkak oshpaz, qo'shni qiz, sinfdosh yigit, qozoq chol, rus shifokor, suvchi yigit, mahalladosh novvoy, sirdosh do'st, ovuldosh cho'pon, tilshunos olim, aravasoz usta, chiptachi erkak*, (v.h.).

Shaxsni tafsiflovchi so'z birikmalarini semantik jihatdan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

**1) shaxsni kasbi va jinsiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar:** *o'qituvchi ayol, oshpaz erkak, shifokor ayol, sotuvchi erkak, farrosh xotin, naqqosh erkak, haydovchi ayol, novvoy erkak, fermer ayol, soatsoz erkak...*

**2) shaxsni jinsi va kasbiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar:** *erkak shifokor, ayol payvandchi, erkak oshpaz, ayol fermer, erkak tikuuchi, ayol uchuvchi...*

**3) shaxsni millati va kasbiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar:** *qozoq cho'pon, o'zbek muallim, tojik savdogar, hind sangtarosh, uyg'ur oshpaz, turk muhandis...*

**4) shaxsni yoshi va kasb/hunariga ko'ra tafsiflovchi birikmalar:** *chol baqqol, o'spirin usta, kampir tabib, o'smir etikdo'z...*

**5) shaxsni kasb-hunariga ko'ra tafsiflovchi birikmalar:** *duradgor usta, o'rmonchi agronom, aravasoz usta, parhezshunos hamshira, mashinasoz muhandis, maslahatchi shifokor, akusher ginekolog, tarjimon shoir, urolog jarroh...*

**6) shaxsni millati va yoshiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar:** *qozoq chol, o'zbek yigit, tojik qiz, lo'li bola, rus kampir, turkman qiz...*

**7) shaxsni millati va jinsiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar:** *o'zbek ayol, turkman erkak, tatar ayol, rus xotin, uyg'ur erkak, qirg'iz xotin...*

**8) shaxsni millati va yaqinligiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar:** *tatar qo'shni, qoraqalpoq kursdosh, tojik mahalladosh, qozoq birodar, rus hamkasb...*

**9) shaxsni millati va qarindoshligiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar:** *tojik kelin, turkman yanga, turk kuyov, tatar buvi, qozoq quda, uyg'ur ovsin...*

**10) shaxsni jinsi va qarindoshligiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar:** *qiz farzand, o'g'il farzand, qiz nevara, o'g'il nevara, ayol quda, erkak quda...*

**11) shaxsni yaqinligi va jinsiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar:** *qo'shni ayol, mahalladosh erkak, hamshahar erkak, hamqishloq ayol...*

**12) shaxsni yaqinligi va kasbiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar:** *qo'shni duradgor, mahalladosh tikuuchi, hamkasb usta, ovuldosh cho'pon, hammaslak o'qituvchi, hamshahar jurnalist, hamqishloq dehqon...*

**13) shaxsni yaqinligi va yoshiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar:** *sinfosh bola, mahalladosh chol, qo'shni kampir, kursdosh qiz, hamqishloq juvon, yurtdosh yigit ...*

**14) shaxsni yaqinligiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar:** *sinfosh do'st, sirdosh dugona, hamqishloq oshna, kursdosh o'rtoq, maslakdosh hamkasb, hamxona kursdosh, kasbdosh do'st...*

O'zbek tilida shaxs tafsifini ifodalovchi so'z birikmalarini alohida ma'noviy tur sifatida ajratilgan. Mazkur so'z birikmalarini hosil qiluvchi lisoniy sintaktik qolip ham aniqlangan [7;8;9;10;11].

Shaxsni tafsiflovchi so'z birikmalarining lisoniy qurilishi  $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$  sintaktik qolipida umumlashadi. Bu so'z birikmalarini nutqda  $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$  qolipining voqelanishi asosida yuzaga keladi, shuning uchun  $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ ning hosilalari hisoblanadi. Shaxsni tafsiflovchi so'z birikmalarining guruhlarga ajratilgan ko'rinishlari shaxs otlarining o'zaro birikuvalarini umumlashtirgan  $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$  qolipa tegishlidir. Ammo ular bu sintaktik qolipga muayyan oraliq shakl/qolip orqali, ya'ni:

- 1) shaxsni kasbi va jinsiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar  $[O_k \sim O_j] = SB$  oraliq shakli;
- 2) shaxsni jinsi va kasbiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar  $[O_j \sim O_k] = SB$  oraliq shakli;
- 3) shaxsni millati va kasbiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar  $[O_m \sim O_k] = SB$  oraliq shakli;
- 4) shaxsni yoshi va kasb/hunariga ko'ra tafsiflovchi birikmalar  $[O_y \sim O_{kh}] = SB$  oraliq shakli;
- 5) shaxsni kasb-hunariga ko'ra tafsiflovchi birikmalar  $[O_k \sim O_k] = SB$  oraliq shakli;
- 6) shaxsni millati va yoshiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar  $[O_m \sim O_y] = SB$  oraliq shakli;
- 7) shaxsni millati va jinsiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar  $[O_m \sim O_j] = SB$  oraliq shakli;
- 8) shaxsni millati va yaqinligiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar  $[O_m \sim O_{yaq}] = SB$  oraliq shakli;
- 9) shaxsni millati va qarindoshligiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar  $[O_m \sim O_q] = SB$  oraliq shakli;
- 10) shaxsni jinsi va qarindoshligiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar  $[O_j \sim O_q] = SB$  oraliq shakli;
- 11) shaxsni yaqinligi va jinsiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar  $[O_{yaq} \sim O_j] = SB$  oraliq shakli;
- 12) shaxsni yaqinligi va kasbiga ko'ra tafsiflovchi birikmalar  $[O_{yaq} \sim O_k] = SB$  oraliq shakli;

**LINGUISTICS**

- 13) shaxsni yaqinligi va yoshiga ko'ra tavsiflovchi birikmalar  $[O_{yaq} \sim O_y] = SB$  oraliq shakli;  
 14) shaxsni yaqinligiga ko'ra tavsiflovchi birikmalar  $[O_{yaq} \sim O_{yaq}] = SB$  oraliq shakli assosida bog'lanadi.

Shunga asoslanib aytish joizki, o'zbek tilida shaxsni tavsiflash vazifasiga xoslangan so'z birikmalari mavjud va ular shaxs tavsifini anglatuvchi so'z birikmalari tizimini hosil qiladi. Bu tizimni quyidagi jadval yaqqol aks ettiradi:

<b>Shaxs tavsifini anglatuvchi SBlari</b>	
Shaxs tavsifi – umumiy ma'no	$[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ – umumiy qolipi
Xususiy ma'nolar/ma'noviy turlar	Oraliq shakl/qolip
1. <i>Kash va jinsga k.t. SBlari</i>	$[O_k \sim O_j] = SB$
2. <i>Jins va kasbga k.t. SBlari</i>	$[O_j \sim O_k] = SB$
3. <i>Millat va kasbga k.t. SBlari</i>	$[O_m \sim O_k] = SB$
4. <i>Yosh va kasb/hunarga k.t. SBlari</i>	$[O_y \sim O_{k/h}] = SB$
5. <i>Kash-hunarga k.t. SBlari</i>	$[O_k \sim O_h] = SB$
6. <i>Millat va yoshga k.t. SBlari</i>	$[O_m \sim O_y] = SB$
7. <i>Millat va jinsga k.t. SBlari</i>	$[O_m \sim O_j] = SB$
8. <i>Millat va yaqinlikka k.t. SBlari</i>	$[O_m \sim O_{yaq}] = SB$
9. <i>Millat va qarindoshlikka k.t. SBlari</i>	$[O_m \sim O_q] = SB$
10. <i>Jins va qarindoshlikka k.t. SBlari</i>	$[O_j \sim O_q] = SB$
11. <i>Yaqinlik va jinsga k.t. SBlari</i>	$[O_{yaq} \sim O_j] = SB$
12. <i>Yaqinlik va kasbga k.t. SBlari</i>	$[O_{yaq} \sim O_k] = SB$
13. <i>Yaqinlik va yoshga k.t. SBlari</i>	$[O_{yaq} \sim O_y] = SB$
14. <i>Yaqinlikka k.t. SBlari</i>	$[O_{yaq} \sim O_{yaq}] = SB$

Turkiy tillarda shaxs tavsifini anglatuvchi birikmalar "ismli so'z birikmalari" yoki "ismli birikmalar" terminlari ostida o'rganilgan. Chunonchi, M.T.Ramazanov "Именное словосочетание в азербайджанском языке в сравнительно-сопоставительном освещении" nomli tadqiqotida ismli birikmalarni qismlari ot bilan ifodalangan so'z birikmalari sifatida tahlil qiladi [4, 210-212]. Uning fikricha, bunday birikmalarda ikkala qism (ya'ni tobe va hokim a'zo – *izoh bizniki*) bosh kelishikda ifodalanadi va qismlar orasida atributiv (aniqlovchili) munosabat mavjud bo'ladi. Birinchi qism ikkinchisini aniqlaydi. Ko'p hollarda qismlar vazifasida muayyan otlar voqelashadi: demir korpu=turk tilida; demir ko'pru – rus tilida: железный мост (o'zbek tilida: temir ko'pri); dash ev=turk tilida: taş ev – rus tilida: каменный дом (o'zbek tilida: tosh uy)... [4, 210].

Tadqiqotchi ismli birikmalarni tarkibiy qismlari orasidagi semantik munosabatlar asosida guruhlarga ajratganligi e'tiborimizni tortdi. Zero, ular sirasida shaxsni muayyan jihatdan tavsiflaydigan so'z birikmalari ham o'rinn olgan. Chunonchi:

1. Birinchi komponenti ikkinchi komponentida ifodalangan shaxsning mashg'ulot turini anglatuvchi so'z birikmalari. Masalan: muellim Suleyman = turkcha: öğretmen Suleyman – rus tilida: учитель Сулейман; hekim Logman = turkcha: hekim Loğman – rus tilida: врач Локман; demirchi Musa = turkcha: demirçi Musa – rus tilida: кузнец Муса [4, 211].

2. Birinchi a'zosi ikkinchi a'zo nomlaydigan shaxsning lavozimi, unvoni, darajasi, ilmiy darajasi va shu kabilarni anglatuvchi so'z birikmalari. Masalan: general Nazi = turkcha: general Nezi – rus tilida: генерал Нази; polkovnik Mustafa = turkcha: albay Mustafa – rus tilida: полковник Мустафа; deputat Xelil = turkcha: milletvekili Halil – rus tilida: депутат Халил [4, 211].

3. Birinchi a'zosi ikkinchi a'zo nomlaydigan shaxsning qarindoshlik belgisini aniqlashtiruvchi so'z birikmalari. Bu guruhga quyidagi birikmalar kiritilgan: jezne Hesen = turkcha: enişte Hasan – rus tilida: зять Гасан; dayu oğlu Memmed = turkcha: dayi oğlu Memet – rus tilida: сын дяди Мамед; xala oğlu Mehman = turkcha: hala oğlu Mehman – rus tilida: сын тети Мехман; kirve Mehemmed = turkcha: kirve Mehemet – rus tilida: кум Мамед [4, 211].

4. Birinchi komponenti ikkinchi komponentida ifodalangan shaxsning milliy mansubligini anglatuvchi so'z birikmalari. Masalan: rus Ivan=turkcha: rus Ivan – rus tilida: русский Иван; ózbek Gulam=turkcha: ózbek Gulam – rus tilida: узбек Гулам; tatar Balaxan = turkcha: tatar Balahan – rus tilida: татарин Балахан; gurchu Shato = turkcha: gürçü Şato – rus tilida: грузин Шато [4, 211-212].

5. Birinchi komponenti ikkinchi a'zo nomlaydigan predmet laqabini aniqlashtiruvchi so'z birikmalari. Quyidagi birikmalar mazkur guruh tarkibiga kirishi qayd etilgan: gatyr Memmed = turkcha: gatir Memmed –

## LINGUISTICS

rus tilida: мул Мамед; kirpi Hesen=turkcha: kirpi Hasan – rus tilida: ёж Гасан; xoruz Semed=turkcha: horus Semed – rus tilida: петух Самед; chuche Kerim = turkcha: çivçiv Kerim – rus tilida: цыпленок Керим [4, 212].

M.T.Ramazanov tomonidan tasniflangan ismli birikmalar tarkibidagi besh xil guruh ozarbayjon tilida shaxsni tafsiflovchi so'z birikmalari mavjudligini tasdiqlaydi. Shuningdek, ozarbayjon tilidagi ismli birikmalarning mazkur besh turi turk tilidagi ayni ma'noni ifodalaydigan birikmalar bilan qiyoslangan. Bu esa turk tilida ham shaxsni tafsiflovchi so'z birikmalari mavjudligidan dalolat beradi.

Shu o'rinda M.B.Guseynova qumiq tilida izofali so'z birikmalarini tadqiq qilganligini qayd etish joiz. Chunki uning tadqiqotida o'rganilayotgan masalaga bevosita aloqador ma'lumotlar o'z ifodasini topgan. Turkiy tillardan biri – qumiq tilida shaxs tafsifini aniqlashtiruvchi so'z birikmalari mavjudligi haqida dalillar keltirilgan. Biroq tadqiqotchi bunday so'z birikmalarini "ismli birikmalar" deb baholamaydi. Mohiyatan shaxsni tafsiflovchi so'z birikmalarini "izofali birikmalar"ning turi sifatida baholab, quyidagi guruhlarga ajratadi:

1. Prepozitiv ot ikkinchi komponent anglatuvchi atoqli (xususiy) otning sotsial mavqeyi, kasbi, unvoni, darajasini bildiradi: "туварчы Агъмат" – rus tilida: «пластух Ахмед», "шавхал Тарковский" – rus tilida: «шамхал Тарковский», "охувчу Аскер" – rus tilida: «ученик Аскер» [6, 9].

2. Prepozitiv ot, ya'ni aniqlovchi millat vakilini, postpozitiv ot, ya'ni aniqlanmish so'z kasbni anglatadi: "даргили хасапчы" – rus tilida: «мясник даргинец», "орус учитель" – rus tilida: «русский учитель», "қазақкүмүкълы этикчи" – rus tilida: «лакец-сапожник» [6, 9-10].

3. Tobe komponent (aniqlovchi) vokativ epitetning murojaat formulari sifatida qo'llanib, hokim komponent ifodalaydigan atoqli (xususiy) otga tegishli unvon, sotsial mavqe, turli qarindoshlik aloqasini anglatadi: "къурдашым Магъаммат" – rus tilida: «друг Маромед», "кызызардашыш Патимат" – rus tilida: «сестра Патимат», "эгечим Патимат" – rus tilida: «сестра отца Патимат», "бийке Патимат" – rus tilida: «госпожа Патимат» (aynan «княгиня Патимат») [6, 10-11].

Alohida bo'lmasa ham, tadqiqotchi tomonidan bu sirada aniqlovchi sifatida kishi ismlari (xususiy nomlar) va hokim komponent mavqeyida turli murojaat, qarindoshlik aloqasi nomlari ("ағъаб", "иним", "әфенди", "абай", "ханым", "бийке", "ағъа", "аба") ifodalanadigan so'z birikmalarini qayd etadi: "Агъмат ағъа", "Папукъ аба" (bu vigiga murojaat) [6, 10-11].

M.B.Guseynova "mazkur struktur tip boshqa turkiy tillar uchun xarakterli, deb hisoblaydi [6, 11]. Uning fikrini qo'llab quvvatlagan holda, aytish joizki, o'zbek tilida ham tarkibiy qismlari kishi ismlari (familiya va ota ismlari), ya'ni antroponimlardan tuziladigan so'z birikmalarini mavjud.

Mazkur birikmalar ikki guruhga bo'linadi:

Birinchi guruhga tobe a'zosi shaxs otlari, hokim a'zosi kishi ismlari (familiya yoki ota ismlari) – antroponimlardan tuzilgan so'z birikmalarini kiradi: *usta Abduqahhor, suvchi Nozim, general Rahimov, professor Ne'matov, shoh Bobur, mulla Abdurahmon v.h.*

Ikkinchi guruhni tobe a'zosi kishi ismlari (familiya yoki ota ismlari) –antroponimlar, hokim a'zosi shaxs otlaridan iborat so'z birikmalarini tashkil qiladi: *Nurmat bo'zchi, Qosim sartarosh, Yusuf muallim, Haydar cho'pon, Xosiyat kashtachi, Akbar rais, Nasim polvon, Hanifa doya, Shodmon tog'a, Oysha xola v.h.*

Tobe a'zosi shaxs otlari va hokim a'zosi kishi nomlaridan tuzilgan (1-guruh), shuningdek, tobe a'zosi kishi nomlari va hokim a'zosi shaxs otlaridan tashkil topgan (2-guruh) so'z birikmalarini o'zbek tilida shaxs tafsifining sintaktik ifodalinish vositasi, shakli, usuli, imkoniyati borligini dalillaydi.

M.Y.Xojiyeva "Antroponimlar (kishi ismi, familiyasini anglatuvchi birliklar) tobe yoki hokim vaziyatda reallashuvini tasdiqlovchi bu so'z birikmalarini alohida guruhni tashkil etadi. Shunga ko'ra, bu guruhni shaxsni tafsiflovchi so'z birikmalarini sirasida antroponim shakllantiruvchi guruh sifatida ajratish mumkin", deb hisoblaydi [10,14]. Bu guruhga oid so'z birikmalarini ham tilning shaxsni atash va muayyan xususiyatiga ko'ra tafsiflash vazifasini nutqda ro'yobga chiqishi bilan amalgalashadi. Otlarga xos lisoniy imkoniyatlardan biri shaxs otlari va atoqli ot (antroponim)larning sintaktik aloqasi asosida voqelanar ekan, shaxs otlarining atoqli otlarni biriktirish va ularga birikish qobiliyatlarini namoyon etadi. Boshqacha aytganda, o'zbek tilida shaxsni tafsiflovchi ot leksemalarning atoqli otlar, ya'ni kishi ismi, ota ismi, familiyasini anglatgan leksemalar bilan tobelanishidan hosil bo'ladigan hamda kommunikativ maqsad va nutqiy ehtiyojdan paydo bo'ladigan so'z birikmalarini mavjud. Bunday so'z birikmalarining tarkibida kishi ismi, ota ismi, familiyasini atovchi leksemalar goh tobe, goh hokim vaziyatda voqelana oladi [10, 14-15].

Ayni paytda, otlarning o'zaro tobelanishidan hosil bo'ladigan, aniqrog'i, tobe va hokim a'zolari otlardan tuziladigan so'z birikmalarini turkiyshunoslikda aksariyat "ismli birikmalar" sirasiga kiritilgan va mazkur so'z birikmalarining bir turi sifatida o'rganilgan, deb qat'iy xulosalab bo'lmaydi. Chunki ba'zi

## LINGUISTICS

tadqiqotlarda bunday birikmalar “substantiv so‘z birikmalari” termini ostida o‘rganilgan, hatto turkiy va noqardosh tillardagi substantiv birikmalar qiyoslangan.

Jumladan, G.I.Babayeva ham “Turkiy tillarda otlarning muayyan guruhi ikkala komponenti ot bilan ifodalangan, shu bilan birga, bu komponentlardan birinchisi ikkinchisining aniqlovchisi bo‘lib xizmat qiladigan so‘z birikmalarini hosil qila oladi” [3, 8-9], deya e’tirof etadi. U substantiv so‘z birikmalarini ozarbayjon va rus tillari misolida qiyosan o‘rganar ekan, bunday so‘z birikmalarining tobe a’zosi bosh kelishikdagi ot bilan ifodalananishini nazarda tutib, “Tobe komponenti bosh kelishikdagi otli substantiv birikmalar” modelini alohida ko‘rsatib o’tgan. Qizig‘i shundaki, model muayyan qurilma/formula/chizma/tarh shaklida berilishi lozim edi, ammo u so‘zlarda ifodalangan. Tadqiqotchi “bu model hozirgi ozarbayjon tilida keng qo‘llanilishi”ni, “nominativ shaklidagi otlar otlar bilan birikib, tobe komponent vazifasini bajarib, xilma-xil, ayniqsa, aniqlovchili munosabatlarni ifodalashi”ni qayd etadi [3, 10]. Muhim tomoni shundaki, ozarbayjon tilidagi “Tobe komponenti bosh kelishikdagi otli substantiv birikmalar” sirasiga shaxs tavsifini ifodalaydigan quyidagi birikmalarni kiritadi:

1. Nominativda tobe ot kasb yoki mutaxassislikni anglatuvchi substantiv so‘z birikmali: *usta Məməd* – rus tilida: «мастер Мамед»; *dəyirmənçi Həsən* – rus tilida: «смельник Гасан» v.h. [3, 10].
2. Substantiv so‘z birikmali laqab yoki taxallusni ifodalaydi: *Nəhəng Səlim* – rus tilida: «Великан Салим»; *Ayi İlhan* – rus tilida: «Медведь Илхан» v.h. [3, 10].
3. Daraja, unvon yoki lavozimni anglatuvchi substantiv so‘z birikmali: *professor Əli* – rus tilida: «профессор Али», *idmançı Seyid* – rus tilida: «спортсмен Сейид», *müdüür Bəsir* – rus tilida: «директор Басир» v.h. [3, 10].
4. Substantiv so‘z birikmali millatga ishora qiladi: *azəri oğlan* – rus tilida: «азербайджанец мальчик» v.h. [3, 11].
5. Substantiv so‘z birikmali qarindoshlik yoxud boshqa munosabatlar termini sifatida xizmat qila oladi: *bacı Əminə* – rus tilida: «сестра Эминэ», *yoldaş Muxtar* – rus tilida: «товарищ Мухтар», *gonçu Emin* – rus tilida: «сосед Эмин» v.h. [3, 11]
6. Substantiv so‘z birikmali muayyan shaxsni u ishlayotgan yoki ro‘yxatda turgan tashkilot yoki muassasa orqali nomlaydi: *ambarçı İdris* – rus tilida: «Идрис, который работает на складе» v.h. [3, 11].

G.I.Babayeva ajratib ko‘rsatgan olti xil so‘z birikmasi, muallif ularni “substantiv birikmalar” deb baholagan bo‘lsa ham, aslida, shaxsni mutaxassislik, laqab, taxallus, daraja, unvon, lavozim, millat, qarindoshlik yoki boshqa munosabatlar, ishlayotgan tashkilot yoki muassasa bilan aloqadorligiga ko‘ra aniqlashtiradi. Asosiysi, tadqiqotchi substantiv birikmalar sirasida guruhtagan olti xil so‘z birikmasi turkiy tillarga mansub ozarbayjon tilida shaxs tavsifi so‘z birikmalarida ifodalananishining yorqin dalili sanaladi.

**Xulosa.** Tahsil natijasidan anglashiladiki, ozarbayjon va qumiq tillariga xos dalillarning aksariyati shaxs tavsifini «shaxs oti+kishi nomi» va «kishi nomi+shaxs oti» birikish tarziga ega qurilmalarda ifoda etsa ham, mazkur so‘z birikmalarining lisoniy qurilishi va sintaktik qoliplari aniqlanmagan. Bundan farqli o‘laroq, o‘zbek tilida shaxsni tafsiflovchi so‘z birikmalarining bu turi substansial sintaksis nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan: mazkur birikmalarning lisoniy qurilishi va sintaktik qoliplari aniqlangan [7;10;11].

Ma‘lum bo‘ladiki, G.I.Babayeva substantiv birikmalar sirasiga kiritgan olti xil so‘z birikmasi ham, M.T.Ramazanov ismli birikmalar tarkibida ajratgan besh xil guruh ham ozarbayjon tilida, M.B.Guseynova izofali birikmalar sirasida ko‘rsatib o’tgan uch guruh qumiq tilida shaxs tavsifi so‘z birikmali orqali ifodalana olishini yana bir karra tasdiqlaydi. Demak, o‘zbek, ozarbayjon, qumiq tillarida shaxsni tafsiflovchi so‘z birikmalarining mavjudligi “turkiy tillarda shaxs tavsifi sintaktik birliklar, ya’ni so‘z birikmali ko‘rinishlarida ifodalananish imkoniyatiga ega” deb umumlashtirishga asos bo‘ladi.

### ADABIYOTLAR:

1. Рагимханова С.Э. Синтаксические модели субстантивных словосочетаний в азербайджанском языке//Вестник Адыгейского государственного университета. Сер. Филология и искусствоведение. –Майкоп, 2009. Вып.3.– С. 204-209.
2. Ященко Н.В. Свободное словосочетание как способ номинации лиц женского пола в современном немецком языке/Балтийский гуманитарный журнал.2018.-№2(23).Т.7.–С.107-111. <https://cyberleninka.ru/journal/n/baltiyskiy-gumanitarnyy-zhurnal>
3. Бабаева Г.И. Простые и сложные субстантивные словосочетания в азербайджанском и русском языках: Автореф.диссер....кандидата филол. наук. – Махачкала, 2016.–25 с. <https://www.dissertcat.com/content/prostye-i-slozhnye-substantivnye-slovosochetaniya-v-azerbaidzhanskom-i-russkom-yazykakh/read>

## LINGUISTICS

4. Рамазанов М.Т. Именное словосочетание в азербайджанском языке в сравнительно-сопоставительном освещении. [https://lib.herzen.spb.ru/media/magazines/contents/1/93/ramazanov\\_93210212.pdf](https://lib.herzen.spb.ru/media/magazines/contents/1/93/ramazanov_93210212.pdf)
5. Зиннатуллина Г.Х. Типы и функции апеллятивных идентификаторов (на примере художественных текстов татарской литературы) // Сибирский филологический журнал. 2013. –С.227-231. <https://cyberleninka.ru/article/n/tipy-i-funktsii-apellyativnyh-identifikatorov-na-primere-hudozhestvennyh-tekstov-tatarskoy-literatury/pdf>
6. Гусейнова М.Б. Изофетные словосочетания в кумыкском языке: Автореф. диссер. ... кандидата филол.наук. – Махачкала, 2006. –24 с. <https://www.dissertcat.com/content/izafetnye-slovosochetaniya-v-kumykskom-yazyke/read>
7. Nazarova S.A., Khojiyeva M.Yu. Personal Description in the Word Combination and Expression in a Speech// International Journal of Integrated Education. ISSN: 2620-3502 (E) 2615-3785 (P) Impact factor - 5.8. Volume 3 Issue II. Feb.2020. -P.15-18. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE>
8. Назарова С. Лисоний синтактик курилиш қолиллари ҳусусида // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. – Бухоро, 2008. -№3. – Б.66-68.
9. Назарова С.А. Сўз биримаси синтаксиси субстанциал талқинда. –Т.: Фан, 2015. – 112 б.
10. Xojiyeva M.Y. O'zbek tili so'z birikmalarida shaxs tavsi fi (substansial va sotsiopragmatik aspektlarda). Filol. fanlari... falsafa doktori (PhD) disser.avtoref. –Buxoro, 2023.– 59 b.
11. Nazarova S., Xojiyeva M. Ismli birikmalar. – Buxoro: Bukhara hamd print, 2023. – 156 б.